

Tarjimashunoslik sohasidagi ulkan meros
Yakubova Sitora Sharipovna

Annotatsiya

Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning ijod faoliyati, hayoti davomida qilgan tarjima asarlari haqida qisqacha ma`lumot berilgan hamda Ogahiy davrida Xorazmda vujudga kelgan madaniy muhit haqida so`z boradi.

Kirish so`zlar:

“Oshiqlar tumori”, “Qobusnoma”, Muhammad Rahimxon Feruz, madaniy muhit, badiiy tarjima mahorati.

“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma`naviyatini ko`rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo`l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta`sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o`rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”

Sh.M. Mirziyoyev.

Mustaqillik sharofati bilan adabiyotga muhabbat yanada chuqur ildiz otib bormoqda. Buyuk adabiyot namoyandalari asarlarini o`rganishga katta e`tibor qaratilmoqda. Xususan, shoir, tarjimon, tarixnavis hamda davlat va jamoat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy xalqimiz tarixida o`ziga xos o`ringa ega bo`lgan serqirra iste`dod sohiblaridan biridir. Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) buyuk shoir, iste`dodli tarjimon va davlat arbobidir. U Xorazm xonligining poytaxti Xiva shahridan 7-8 chaqirim uzoqlikdagi Qiyot qishlog`ida tavallud topdi. Dastlabki ma`lumotni Qiyot qishlog`ida olgach, Xiva madrasalaridan birida o`qishni davom ettirdi. Ogahiy ma`naviy kamolotida amakisi- shoir, ulug` murabbiy Shermuhammad Munis alohida o`rin tutadi. Munis vafotidan so`ng-1829-yildan Ogahiy saroy ishlariga aralasha boshladi. Xorazm xoni Olloqulixon uni mirob lavozimiga tayinlaydi. Saroydagi bu mansab ilm-fan, adabiyot va san`at shaydosi bo`lgan Ogahiyning anchagina vaqtini band qilar edi.

Insonning ko`ngil hayotiga teran kirib borgan Ogahiy din, axloq, ma`naviyat, adolat to`g`risida oz` fikrlarini ochiqdan-ochiq izhor qila olgan ulkan siymolardandir. Ogahiy buyuk lirik shoir edi. Muhammadrizo Erniyozbek o`g`li-Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik siymolaridan biri bo`lib, Navoiydan keyingi eng “ko`p va xo`p she`r” aytgan shoirlardandir. U “Ta`viz ul-oshiqin” (Oshiqlar tumori) nomli hajman katta devon tartib qildi, “Bayozi mutafarriqai forsiy” majmuasini tuzdi. Badiiy

tarjima Ogahiy ijodida salmoqli o`rin egallaydi. Shoirning yuksak iste`dodi uning tarjima asarlarida ham namoyon bo`ldi. U musulmon Sharqi mutafakkirlarining 20dan ortiq asarlarini mahorat bilan o`zbek tiliga tarjima qildi. Xususan: Shayx Muslihiddin Sa`diyning 8 bobdan iborat bo`lgan didaktik asari "Guliston"- Ogahiy tomonidan o`zbek tiliga tarjima qilingan. Asarda umumbashariy orzular ta`limiy-tarbiyaviy hikoyatlarda bayon qilingan. Ogahiygacha bu asar XIV asr oxirida Sayfi Saroyi tomonidan o`zbek tiliga "Guliston bit turkiy" nomi bilan erkin tarjima qilingan. Ogahiy Sa`diyning "Guliston " asarini 1862-1863-yillarda o`zbek tiliga tarjima qildi.

"Axloqi Muhsiniy"- XV asrda Hirotda yashab ijod qilgan Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy (1440-1504)ning ta`limiy-ma`rifiy asari Ogahiy tomonidan tarjima qilingan . Husayn Voiz o`z davrining yirik axloqshunos olimi , voiz(notiq)laridan bo`lib, "Anvari Suxayliy", " Futuvvatnomayi sultoniy" kabi inson kamoloti haqida asarlari mavjud. Ogahiy "Axloqi Muhsiniy " asarini umrining oxirida- 1873-yilda o`zbek tiliga o`girgan.

"Daloyiul- hayrat"-XV asrda yashab faoliyat ko`rsatgan aqidashunos Muhammad ibn Sulaymon Juzuliyning Muhammad payg`ambar va uning sahobalari, avliyolar hayoti haqida hikoya qiluvchi rivoyatlar, madhiyalar to`plami.Ogahiy ushbu asarning Fasih al-Qasriy tomonidan Usmonli turk tilida qilingan sharhini 1870-yilda tarjima qilgan.

"Badoye` ul-vaqoye" (Go`zal voqealar)-Zayniddin Mahmud ibn Abdujamil Vosifiyning memuar asarini ham tarjima qilgan.. Ogahiy tarjimashunoslik faoliyatida Kaykovusning "Qobusnoma" asari yetakchi o`rin egallaydi. Buyuk o`zbek shoiri Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan "Qobusnoma" asari 1860- yilda birinchi marta o`zbek tiliga tarjima qilindi. Ogahiyning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug`orilgan g`oyalari xon va shoir Feruzning siyosiy-ma`rifiy tarbiyasiga ta`sir qildi. U tarixchi olim sifatida Xiva xonlariga, yirik tarixiy shaxslarga bag`ishlab qasidalar bitdi.Bu davrda Muhammad Rahimxon "Feruz"taxallusi bilan ijod qilgan bo`lsa, uning akasi Otajon To`ra Murod "Murodiy" taxallusi bilan she`r bitganlar. Feruzning otasi Sayyid Muhammadxon 1863-yili vafot etdi. 19 yoshli Muhammad Rahim Xiva xonligi taxtiga ko`tariladi. Uning saltanat sohibi bo`lishi toj-taxt uchun kurashlar, xunrezliklar bilan emas , balki saroy ahllarining , "shuaro va fuzalo xayli"ning xohish-irodasi bilan amalga oshdi. Unda shoir yosh xonga davlatni adolat bilan boshqarish haqida pand-nasihatlar qiladi, buning uchun u tarixda o`tgan hukmdorlar faoliyatini taxt sohibi ko`zi o`ngida jonlantiradi, ularning olib brogan ishlaridan to`g`ri xulosa chiqarishga da`vat etadi. Muhammad Rahimxon 47 yil Xorazm vohasida davlat boshqardi, shuning o`ziyoq uning katta salohiyatli sultonligini, adolatparvar, ma`rifatparvar xon ekanligini

ko`rsatadi. Feruz ulkan shoir bo`lish bilan birga , Xivada katta adabiy muhitni vujudga keltirdi, uning bevosita rahbarligida XIX-XX asr Xorazm adabiyoti bo`yicha qimmatbaho tazkira- "Majmuat ush-shuaro" ("Shoirlar majmuasi") asari yaratildi. Shu jumladan ham Muhammad Rahimxon davrida Xorazm vohasida adabiy muhit yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. "Ma`naviyat yulduzlari" Toshkent. 1999
2. Sa`diy Sheroziy "Guliston" Toshkent. 1993-yil 9-bet.
3. Ogahiy haqida maqolalar . Toshkent. 1999